

Sharipova Shaxnoza Xasanovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Samarqand kampusi, pedagogika kafedrası dotsenti, (PhD)

shahnoza@gmail.com

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari hamda ularning pedagogik samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va masofaviy ta'lim platformalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish masalalari yoritiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni qo'llashda yuzaga kelayotgan muammolar, jumladan, pedagoglarning raqamli kompetensiyasi, texnik infratuzilma va metodik ta'minot bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi. Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati asoslanib, ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni, raqamli ta'lim, masofaviy ta'lim, interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar, ta'lim sifati, raqamli kompetensiya, elektron ta'lim, ta'lim innovatsiyasi.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Аннотация. В статье анализируются современные тенденции использования инновационных технологий в образовательном процессе и их влияние на педагогическую эффективность. Рассматриваются вопросы интеграции цифровых технологий, интерактивных методов и платформ дистанционного обучения. Освещаются проблемы цифровой компетентности педагогов, технической инфраструктуры и методического обеспечения. Обосновывается значение инновационных подходов в повышении качества образования и предлагаются научно-практические рекомендации по их дальнейшему развитию.

Ключевые слова: инновационные технологии, образовательный процесс, цифровое образование, дистанционное обучение, интерактивные методы, педагогические технологии, качество образования, цифровая компетентность.

DEVELOPMENT TRENDS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION

Abstract. This article analyzes current trends in the use of innovative technologies in education and their impact on pedagogical effectiveness. It examines the integration of digital technologies, interactive methods, and distance-learning platforms into the educational process. Particular attention is paid to teachers' digital competence, technical infrastructure, and methodological support. The importance of innovative approaches for improving educational quality is substantiated, and practical recommendations for their further development are proposed.

Keywords: innovative technologies, educational process, digital education, distance learning, interactive methods, pedagogical technologies, quality of education, digital competence.

Kirish

Bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarning zamonaviy faoliyat turlari bilan shug'ullanishida innovatsion tafakkur va kasbiy madaniyat muhim omil hisoblanadi. Axborot

texnologiyalari va yangi iqtisodiy yo'nalishlar bilan bog'liq faoliyat turlari tobora ommalashib, yangicha ishlash hamda daromad topish mezonlari shakllanmoqda. Yangi ming yillikda vujudga kelgan faoliyat shakllari mamlakatlar uchun keng imkoniyatlar, zamonaviy xizmatlar bozori va global faoliyat maydonini yaratmoqda.

Ta'lim muassasalarida beriladigan ta'lim-tarbiya mazmuni tarixiy xususiyatga ega. Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida yosh avlodga beriladigan ta'lim mazmuni va hajmi muayyan ijtimoiy tizimning iqtisodiy talabi, ehtiyoji, fan-texnika taraqqiyoti hamda madaniy rivojlanish darajasi bilan belgilanib kelgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ham aynan shu ehtiyojlardan kelib chiqib shakllanadi [1, 95].

Psixologiyada psixoanalitik, bixevioristik, gumanistik va kognitiv yo'nalishlar insonning rivojlanishi hamda xulq-atvorini turlicha izohlaydi. Mazkur yondashuvlarning har biri o'qitish metodlari va tarbiya jarayoniga o'ziga xos talablarni qo'yadi. Shu bois raqamli ta'lim vositalarini joriy etishda o'quvchining psixologik xususiyatlari, bilish jarayoni va individual ehtiyojlarini hisobga olish zarur.

Asosiy qism

Inson shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarga yechim topishi hamda o'z sohasi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida talabalarda shu fanning mazmuni va xususiyatidan kelib chiqadigan maxsus kompetensiyalar ham shakllantiriladi [3, 42].

A.A. Verbitskiy fikricha, hayotiy tajriba, tarixiy bilim va amaliy faoliyatni o'zlashtirish natijasida insonning tabiat, jamiyat, boshqa odamlar hamda o'ziga bo'lgan subyektiv munosabatlari shakllanadi. Olim ongni sensor va mantiqiy bilimlarning dinamik o'zaro aloqasi sifatida talqin etadi [4, 112].

Yangilikka intilish insonni faollikka undaydi. Faoliyat jarayonida muhitning ideal modeli yaratiladi, shaxs esa jarayonning faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bilish natijasida insonning bilim olish, atrof-muhitni o'zlashtirish, voqelikni anglash, ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanish ehtiyojlari qondiriladi.

Bilish insonning o'ylash, fikrlash, izlanish va voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqatini ifodalaydi. Ajdodlar merosi ana shu layoqatni faollashtirishga xizmat qiladi. Talabalarning intellektual rivojlanishi, mushohada yuritishi, tahlil qilishi va aniq xulosalar chiqarishi uchun badiiy adabiyot namunalari, hikmatlar va maqollardan didaktik vosita sifatida foydalanish samarali hisoblanadi [7, 36].

Markaziy Osiyoda yashab ijod qilgan Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino va Abu Nasr Forobiy kabi mutafakkirlar shaxsni har tomonlama kamol toptirishda faol o'qitish metodlariga alohida e'tibor qaratganlar. Ular bilish metodlarini empirik va aqliy metodlarga ajratib, kuzatish, tajriba, tavsiflash va o'lchash kabi usullarning ilmiy ahamiyatini ko'rsatganlar [8, 74].

Forobiy nazariy bilimni egallash uchun uchta muhim shartni ko'rsatadi: birinchidan, muayyan fan kelib chiqishidagi asosiy tamoyillarni puxta bilish; ikkinchidan, shu tamoyillar va ilmiy ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqara olish; uchinchidan, noto'g'ri nazariyani rad etish, haqiqatni yolg'ondan farqlash va boshqa mualliflarning qarashlarini tanqidiy tahlil qilish. Mazkur talablar hozirgi innovatsion ta'limning tanqidiy fikrlashga yo'naltirilgan mazmuni bilan uyg'unlashadi [8, 91].

Yosh avlodning bilish faolligi mavjud pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim-tarbiya mazmuni va ijtimoiy tajribaning o'zlashtirilishiga bevosita bog'liq. Ta'lim mazmunida xalqning ijtimoiy tajribasi aks etishi o'quvchilarda layoqat, iqtidor va iste'dodning namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.

Umumiy layoqatlar shaxsning turli faoliyat turlaridagi muvaffaqiyatini belgilaydi va aqliy qobiliyatlar, harakat aniqligi, xotira hamda nutq rivojida namoyon bo'ladi. Maxsus layoqatlar esa muayyan faoliyat sohasidagi muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Matematik, musiqiy, lingvistik, adabiy, badiiy-ijodiy, texnik, sport va tashkilotchilik layoqatlari shular jumlasidandir.

Umumlashtirish prinsipi ta'lim mazmunini tanlash va uning tuzilishini belgilashda bir yoki bir nechta asosiy g'oyani ajratib olish hamda o'quv materiallarini shu g'oyalar atrofida birlashtirishni nazarda tutadi. Bunday g'oyalar prinsiplar, tushunchalar, qonunlar yoki nazariyalar shaklida bo'lishi mumkin. Umumlashtirish prinsipini amalga oshirish ta'limning ilmiy darajasini oshirish, zamonaviy masalalarni aks ettirish va o'quv vaqtini oqilona taqsimlash o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytiradi [6, 63].

Nazariya nafaqat jarayon va hodisalarni tushuntirish, balki ularning rivojini bashorat qilish hamda yangi qonuniyatlarni aniqlash imkonini beradi. O'quv materiallarini nazariyalar atrofida guruhlash talabalarda olingan bilimlardan hodisalarni izohlash va kelajakdagi jarayonlarni oldindan baholashda foydalanish qobiliyatini shakllantiradi.

Bundan tashqari, materialning nazariy asosda guruhlanishi talabalarda jahon ilm-faniga yaxlit qarashni shakllantiradi. Nazariya zamonaviy fikrlash shakllarini o'zida aks ettirgani sababli u talabalarning nazariy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tafakkur shaxs bilish faoliyatining asosiy ko'rinishidir. U g'oyalarning rivojlanishi, narsa va hodisalarning o'ziga xos jihatlarini kashf etish bilan bog'liq. Ajdodlar tafakkurining mahsuli bo'lgan ilmiy va ijodiy meros yosh avlod ongiga samarali ta'sir ko'rsatib, uning bilish faoliyatini jadallashtiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimida bilim berish, kasb va hunarga tayyorlashning an'anaviy usullari yangicha mezonlar bilan boyitilmoqda. Innovatsion texnologiyalar o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirish, mustaqil ta'limni kuchaytirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va ta'lim natijalarini tezkor baholash imkonini bermoqda.

Elektron ta'lim resurslaridan nafaqat hisoblash vositasi, balki o'qitish, talabalarning intellektual bilish saviyasini rivojlantirish va media madaniyatini shakllantirish manbai sifatida foydalanish lozim. Zamonaviy ta'limda kompyuter dasturlari yordamida modellashtirish, monitoring va interaktiv o'qitish keng qo'llanilmoqda [5, 42].

Innovatsion texnologiyalarni samarali tatbiq etish uchun multimediali o'qitish vositalarini yaratish, tajriba natijalarini jamlaydigan yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, pedagoglarning raqamli malakasini muntazam oshirish hamda metodik ta'minotni takomillashtirish talab etiladi. Blum taksonomiyasiga asoslangan raqamli topshiriqlar talabalarning bilish faoliyatini oddiy eslab qolishdan tahlil, baholash va yaratish bosqichlariga olib chiqishga xizmat qiladi [2, 150–151].

An'anaviy ta'limda o'rganuvchiga axborotni tez va ko'p hajmda yetkazish asosiy mezon bo'lgan bo'lsa, zamonaviy ta'limda uning ichki imkoniyatlarini ochish, iqtidorini namoyon etish, mustaqil fikrlashini rag'batlantirish va muayyan faoliyatga yo'naltirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Raqamli vositalar ta'lim mazmunini yangilash, talabaning bilish faolligini oshirish, shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish va pedagogik nazoratni takomillashtirish imkonini beradi.

Innovatsion ta'limning samaradorligi faqat texnik vositalarning mavjudligiga emas, balki pedagoglarning raqamli kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi, ta'lim mazmunining ilmiyligi va o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishga ham bog'liq. Shu sababli elektron resurslar sifatini oshirish, pedagoglar malakasini uzluksiz rivojlantirish va innovatsion metodlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Raqamli transformatsiya jarayonida milliy pedagogik meros, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va ilg'or axborot texnologiyalarining uyg'unligi ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Байбородова Л.В. Педагогические технологии: учебник и практикум для академического бакалавриата. 2-е изд. – Москва: Юрайт, 2018. – 206 с.
2. Бактыбаева Ж.Ш. Использование технологии таксономии Блума в учебном процессе вуза // Ярославский педагогический вестник. – 2017. – № 1. – С. 150–151.
3. Банко Н.А. Формирование профессионально-педагогической компетентности как компонента профессиональной подготовки менеджеров. – Волгоград, 2004. – 75 с.
4. Вербицкий А.А. Личностные и компетентностные подходы в образовании: проблемы интеграции. – Москва: Логос, 2011. – 336 с.
5. Djurayev R. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent, 2010. – 87 b.
6. Ziyomammedov B. Pedagogika: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon Iqbol, 2006. – 112 b.
7. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 2 jildlik. 1-jild / Tuzuvchilar: K. Hoshimov, S. Ochil. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 460 b.
8. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 248 b.